

UO‘K(UDC, YDK): 821.512.133.091

ITALYAN VA O‘ZBEK ERTAKLARIDA MADANIY TIL BIRLIKLARINING QO‘LLANILISHI²⁰

Ergashova Baxora Sayfillo qizi

Mustaqil tadqiqotchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: ergashova.baxoram@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-2635-2337

ANNOTATSIYA

Ertaklar ma’lum bir xalqning lisoniy ongida muhrlangan madaniy kodlar, qadimiy an’analar va milliy dunyoqarashning badiiy ko‘zgusi hisoblanadi. Mazkur maqolada italyan va o‘zbek xalq ertaklaridagi madaniy yuklamaga ega birliklar qiyosiy-lingvistik hamda madaniy nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Italo Kalvinoning “Fiabe italiane” (Italyan ertaklari) va Jambattista Bazilening “Pentamerone” (Pentameron-Besh kun) asarlari, shu bilan birga o‘zbek xalq ertaklari to‘plamlari asos qilib olingan. Maqolada madaniyatga xos til birliklar to‘rtta asosiy tizim asosida tasniflanadi. Bular moddiy madaniyat (milliy libos va taomlar), ijtimoiy-maishiy munosabatlar, diniy-mifologik obrazlar va tabiat manzaralari. Italyan ertaklaridagi shahar va saroy hayoti, xristian madaniyati unsurlari (masalan, *malocchio* yoki *Befana* obrazi) o‘zbek ertaklaridagi islomiy va qadimiy turkiy mifologiya (masalan, pari, dev, sehrli gilam) bilan chog‘ishtiriladi. Garchi har ikki xalqda ezgulik va yovuzlik kurashi, yaxshilikning g‘alaba qozonishi kabi umumiy jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ulardagi madaniy birliklar ertaklarning milliy o‘ziga xosligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotning amaliy qismida madaniy birliklarni tarjima qilishdagi muammolar va ularni moslashtirish strategiyalari ham alohida ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqola til birliklari orqali ikki xalq madaniyatidagi izomorfik va allamorfik jihatlarni yoritib beradi.

KALIT SO‘ZLAR

Madaniy til birliklari, italyan va o‘zbek ertaklari, Italo Kalvino, lisoniy manzara, mifologik obrazlar, madaniy muloqot, lingvokulturologiya, madaniy moslashtirish.

Received: April 28, 2026

Accepted: June 19, 2026

Available online: September 5, 2026

²⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Ergashova B. Italyan va o‘zbek ertaklarida madaniy til birliklarining qo‘llanilishi.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 329-340.

THE FUNCTIONING OF CULTURALLY MARKED LINGUISTIC UNITS IN ITALIAN AND UZBEK FAIRY TALES

Ergashova Bakhora Sayfillo kizi

Scientific Researcher

Uzbekistan State University of World Languages

Department of Italian Translation Theory and Practice

E-mail: ergashova.baxoram@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-2635-2337

ABSTRACT	KEYWORDS
Fairy tales are artistic reflections of cultural codes, ancient traditions, and national worldviews imprinted in the linguistic consciousness of a particular people. This article examines culturally significant units in Italian and Uzbek folk tales from a comparative linguistic and cultural perspective. The objects of study are Italo Calvino's "Italian Tales" and Giambattista Basile's "Pentamerones", as well as collections of Uzbek folk tales. The article classifies culturally specific linguistic units based on four main systems: material culture (national clothing and food), social and everyday relations, religious and mythological images, and natural landscapes. Elements of urban and palace life and Christian culture (for example, the image of Malocchio or Befana) in Italian fairy tales are compared with Islamic and ancient Turkic mythology (for example, fairies, giants, and magic carpets) in Uzbek fairy tales. Although both peoples share common traits, such as the struggle between good and evil and the triumph of good, cultural units play a key role in defining the national identity of their folktales. The practical part of the study also specifically examines the problems of translating cultural units and strategies for their adaptation. This article highlights isomorphic and allomorphic aspects in the cultures of the two peoples through the lens of linguistic units.	Linguistic cultural units, Italian and Uzbek tales, Italo Calvino, linguistic landscape, mythological images, cultural dialogue, linguacultural studies, cultural adaptation.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНО МАРКИРОВАННЫХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В ИТАЛЬЯНСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗКАХ

Эргашова Бахора Сайфуллаевна

самостоятельный исследователь

*Узбекский государственный университет мировых языков
кафедра теории и практики перевода итальянского языка*

E-mail: ergashova.baxoram@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-2635-2337

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Сказки – это художественное отражение культурных кодов, древних традиций и национального мировоззрения, запечатленного в языковом сознании конкретного народа. В данной статье с сравнительно-лингвистической и культурологической точек зрения исследуются культурно маркированные единицы в итальянских и узбекских народных сказках. Объектами исследования являются «Итальянские сказки» (Fiabe italiane) Итало Кальвино и «Пентамерон» (Pentamerone) Джамбаттисты Базиле, а также сборники узбекских народных сказок. В статье культурно специфические языковые единицы классифицируются на основе четырех основных показателей: материальная культура (национальная одежда и еда), социальные и бытовые отношения, религиозные и мифологические образы, природные ландшафты. Элементы городской и дворцовой жизни, христианской культуры (например, образ Малоккьо или Бефаны) в итальянских сказках сравниваются с исламской и древнетюркской мифологией (например, феи, дэвы, волшебный ковер) в узбекских сказках. Хотя сказки обоих народов имеют общие мотивы, (борьба добра и зла, победа добра над злом), культурные единицы в них играют ключевую роль в обеспечении национального своеобразия произведений. В практической части исследования также отдельно рассмотрены проблемы перевода культурных единиц и стратегии их адаптации. Таким образом, в данной статье на основе анализа языковых единиц освещаются изоморфные и алломорфные аспекты в культурах двух народов.	Культурно маркированные языковые единицы, итальянские и узбекские сказки, Итало Кальвино, языковой ландшафт, мифологические образы, культурный диалог, лингвокультурология, культурная адаптация.

KIRISH

Xalq ertaklari har bir millat madaniy merosining eng qadimiy va boy manbalaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat bolalar tarbiyasida asosiy vosita, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari va tarixiy tajribasini avloddan avlodga o'tkazuvchi muhim madaniy kod vazifasini ham bajaradi. Ertaklarda til va madaniyatning chambarchas bog'lanishi yaqqol namoyon bo'lib, bu uyg'unlik ayniqsa madaniy yuklamaga ega bo'lgan so'zlar orqali kuchliroq ifodalanadi. Ilmiy maqola tadqiqot natijalariga o'tishdan oldin madaniy til birliklariga ta'rif berib o'tishni lozim deb hisoblaymiz. Tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohasida *“madaniy so'zlar muayyan xalqning moddiy hayoti, ijtimoiy tuzumi, tarixiy tajribasi va e'tiqodlarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos leksik birliklar”* sifatida talqin etiladi (Vlahov, Florin, 1980, 47; Newmark, 1988, 94). Ushbu so'zlar shunchaki nomlash vazifasini bajarmasdan, balki boshqa xalqlar uchun noma'lum bo'lgan yoki ularning turmush tarzida uchramaydigan tushunchalarni ifodalashi bilan ajralib turadi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda ular *“geografik hududning o'ziga xos mahsuli, tarixi va kundalik hayotiga oid, boshqa hududlarda muqobili mavjud bo'lmagan so'z va iboralar”* (Caniato, 2024, 36) deya ta'riflanadi. O'zbek tilshunosligida ham bu *“turdagi so'zlar milliy-madaniy o'ziga xoslikni saqlovchi va o'zga madaniyat vakillari uchun muqobilsiz leksik birliklar”* (Qutbiddinova, 2023, 73) sifatida tadqiq etib kelinadi. Bu tushunchalarning umumiy mohiyati shundaki, madaniy yuklamaga ega so'zlar nafaqat lug'aviy ma'noni, balki chuqur milliy uyg'unlikni akslantiruvchi lisoniy vositalardir. Lingvomadaniy birliklar tahlili haqida so'z borganda, unda *“muqobilsiz leksika”* (Calvino, 1956, 54) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushuncha muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos *pul birligi, masofa-uzunlik o'lchov birliklari, ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat, marosim, bayram* kabi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardan iborat bo'ladi. *“Muqobilsiz leksika deganda, bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobilga ega emasligi tushuniladi”* (Rahmatova Z., 2024, 28). Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, bir madaniyat uchun odatiy sanalgan kundalik buyumlar yoki tushunchalar (masalan, o'zbek ertaklaridagi *“tandir”, “o'choq”*

yoki italyan ertaklaridagi “torre” (minora), “fonte” (buloq) boshqa bir madaniyat vakili uchun o‘zbek va italyan xalqlari tarixiy-ijtimoiy manzarasining kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ertaklardagi lingvomadaniy birliklarni qiyosiy o‘rganish nafaqat so‘zlar tarjimasini, balki ikki xalq madaniyati va hayot tarzidagi izomorfik va allamorfik jihatlarini anglashga yo‘l ochadi. Masalan, o‘bek tilidagi “o‘choq” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “*olov yoqiladigan va ovqat pishiriladigan joy*” (ko‘p holatlarda hovlida joylashadi) hisoblansa, uning ko‘chma ma‘nolari ham mavjud. Masalan, “*kitob-bilim o‘chog‘i*”, “*urushning o‘chog‘i*”, “*kasallikning o‘chog‘i*” kabi qator birikmalar va ibratli gaplarga tez-tez duch kelamiz. Bu yerda o‘choq so‘zi “*manba*”, “*boshlanish nuqtasi*”, “*aynan gurkiragan yoki avjiga chiqqan palla*” kabi ma‘nolarni ifodalaydi, ya’ni o‘choq so‘ziga ba’zi o‘rinlarda vazifasi jihatidan, boshqalarida esa tuzilishiga ko‘ra qiyoslanmoqda. “*Ota o‘chog‘ini saqlash, yurtni asrash har bir farzandning burchidir.*” (Uch og‘a-ini botirlar). Ushbu parchada o‘choq “oilaviy davomiylik, avlodlar bog‘liqligi va ota uyining timsoli” sifatida namoyon bo‘ladi.

Italyan xalq ertaklarida *fonte* so‘zi ko‘pincha *buloq*, *chashma* yoki *muqaddas suv* manbasi ma‘nolarida qo‘llanadi. Ertaklarda qahramonlar uzoq safar davomida buloq yonida dam oladilar, sehrli mavjudotlar bilan uchrashadilar yoki aynan shu yerda sinovlardan o‘tadilar. Ba’zi ertaklarda *buloq suvi* mo‘jizaviy xususiyatga ega bo‘lib, kasalliklarni davolaydi, yoshartiruvchi xususiyatga ega bo‘ladi hamda qahramonga yangi kuch bag‘ishlaydi. Masalan: “*Giunse presso una fonte limpida e fresca...*”-“U tiniq va toza bir buloq yoniga yetib keldi...” (I.Calvino, *Fiabe italiane*, 54) “*Bevendo l’acqua della fonte magica, e’ diventata a una fata buona*”- “*Sehrli buloq suvidan ichib, yaxshi pariga aylanib qolibdi*” (I.Calvino, *Fiabe italiane*, 1956, 69). Ushbu misollarda fonte tabiat unsuri bo‘lish bilan birga, voqealar rivojlanishining muhim markazi sifatida namoyon bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Har qanday xalqning kundalik turmush tarzi, kiyinish odatlari va oziq-ovqatlari uning xalq og‘zaki ijodida eng yorqin lisoniy manzarani hosil qiladi. “*Ertaklardagi lingvomadaniy birliklar biror harakat yoki narsani nomlash uchungina xizmat qilmaydi, balki qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiy holati*

va xalqning geografik hamda etnik o'ziga xosligini belgilab beruvchi lisoniy ifoda hisoblanadi" (Caniato, 2024, 106). Italo Kalvinoning "*Fiabe italiane*" (Italyan ertaklari) to'plami (Calvino, 1956, 214) va Jambattista Bazilening qadimiy "*Pentamerone*" asarlarini (Basile, 1684, 235) tahlil qilganimizda, italyan xalqining gastronomik va ijtimoiy xilma-xilligi ertak syujetlariga qanchalik chuqur singib ketganini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, Italo Kalvino to'plamiga kiruvchi "*La finta nonna*" (Soxta buvi) ertagida qahramon qizchaning buvisinikiga yo'lga otlanish sahnasi quyidagicha tasvirlanadi: "*La mamma le fece una focaccia e le disse: - Portala alla nonna che è ammalata*" (Onasi unga bitta fokachcha pishirib berdi va dedi: - Buni betob buvingga eltib ber).

Ushbu o'rinda qizaloqqa oddiy non emas, balki aynan italyan milliy xamirli taomi, *focaccia* (oshirilmagan xamirdan tayyorlangan pishloqli non) berilishi xalqning gastronomik madaniyatini aks ettiradi. Biz ushbu so'zni translitteratsiya usuli orqali tarjima qilamiz: bo'g'irsoq, non, chalpak, qatlama, patir kabi so'zlar to'liq muqobil bo'la olmaydi.

"*Quando i pastori si svegliarono e si videro vestiti da monaci, capirono subito d'esser stati derubati*" - Cho'ponlar uyg'onganlarida rohiblar kiyimida ekanligini ko'rishdi va darrov tunab ketilganliklarini tushunishdi.

Bu gapda "*monaci*"-monaco so'zining ko'plik shakli, xristian diniga xos bo'lgan tushuncha bo'lib, "*monax, rohib*" deb tarjima qilinadi. Dinga oid atamalarni ko'pincha semantik muqobili mavjud bo'lmaydi: Pasqua-Pasxa bayrami, il battesimo-cho'qintirish, chiesa-cherkov (xristian diniga oid); Bomdod, masjid, imom, Ramazon (islom diniga oid).

Jambattista Bazile asarlarida ham *maccheroni* (makaron) yoki *polenta* (bo'tqaning bir turi), *casatiello* (kazatello-pirogning bir turi) kabi taomlar nomi ko'p uchraydi va ular italyan o'quvchisi uchun tarixiy-ijtimoiy xotirani tashuvchi kalit so'zlardir.

Donde uscirono tante pastiere e casatelli? Donde gli stufati e le polpette? Donde i maccheroni e graviuoli, che poteva saziarvisi un esercito intero? Qayerdan chiqdi shuncha *pastiera* (neapolcha murabboli pirog) va *kazatellilar* (pishloqli pirog)? Qayerdan shuncha *dimlamalar* va *kotletlar*? Qayerdan shuncha *makaronlar* va

raviyolilar(chuchvaraga o'xshashxamirli taom), ular bilan butun bir qo'shinni to'ydirish mumkin! Ushbu gapda bir nechta gastronomiyaga oid birliklar keltirilgan bo'lib, ular orqali italyan osxonasining hududlararo xilma-xilligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek xalq ertaklarida lingvomadaniy birliklar o'ziga xos tarkibga ega bo'lib, mintaqamiz iqlimi va turmush tarziga moslashgan lisoniy manzara kasb etadi. O'zbek ertaklaridagi *“tandir”*, *“chopon”*, *“do'ppi”*, *“kovush”* kabi madaniy-ijtimoiy so'zlar ertaklarda oddiy til birligi sifatida emas, balki, milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan yorqin madaniy ramzlar sifatida gavdalanadi. Buni xalqimizning mashhur *“Zumrad va Qimmat”* ertagidagi quyidagi parcha orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin:

“Zumrad sahar turib hovlilarni supuribdi, mol-hollarga qarapdi, tandirga o't qalabdi...”

Bu yerda *“tandir”* shunchaki non pishiradigan jihoz sifatida emas, balki o'zbek xonadonining fayzi, barakasi hamda qahramonning mehnatkashlik va halollik timsoli sifatida ishtirok etmoqda: erta sahar turib tandirga o't qalash odati baraka va rizq olib kelishiga ishora sifatida qaralgan. Ko'pgina ertaklarimizda bosh qahramonlar yovuz kuchlardan aynan tandir ichiga yashirib najot topishi ham qadimiy e'tiqodlarimizda o'choqning himoya kuchiga bo'lgan ishonch bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, qahramonlarning ma'naviy qiyofasi ham milliy liboslar orqali gavdalandiriladi. Masalan, an'anaviy o'zbek qahramonlik ertaklaridan hisoblangan *“Uch og'a-ini botirlar”* da kenja botirning xalqchil va kamtarin obrazi uning libosi orqali shunday ifodalanadi:

“Kenja botir eski choponini kiyib, belini mahkam bog'labdi-da, safarga o'tlanibdi”.

Ushbu parchadagi *“chopon”* qahramonning ota-bobolar an'alariga sadoqati, or-nomusi va milliy portretini o'zida aks ettiradi. Ertaklarda xalqning qadimiy e'tiqodlari, diniy qarashlari va mifologik tasavvurlari ham alohida lisoniy qatlamni tashkil etadi. Bu obrazlar syujet rivojida muhim semantik va sintaktik vazifalarni bajarib, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning asosiy harakatlantiruvchi kuchlariga aylanadi. Misol uchun italyan xalq og'zaki ijodida nasroniy diniga

e'tiqod va xalq an'analarining qorishib ketganini kuzatish mumkin. Xususan, *Befana* (yangi yil bayramidan so'ng bolalarga sovg'a ulashuvchi afsonaviy kampir) va *malocchio* (yomon ko'z, kinna) kabi obrazlar syujetda faol ishtirok etadi. Kalvino to'plagan ertaklarda "*Befana*" (Calvino, 1956, 487) qahramonga mehribon yo'lboshchi hamda adolatli hukm chiqaruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. "Secondo la tradizione, si tratta di una donna molto anziana che vola su una scopa, per fare visita ai bambini nella notte tra il 5 e il 6 gennaio (la notte dell'Epifania) e riempire con i regali le calze lasciate da essi, appositamente appese sul camino o vicino a una finestra. An'anaga ko'ra bir qari ayol (kampir) beshinchidan oltinchi yanvarga o'tar kechasi supurgisi ustida uchar, bolalarnikiga mehmonga borar ular derazalarining tokchasiga yoki kaminga osib qo'ygan paypoqlarini sovg'alar bilan to'ldirar edi (Treccani, n.d). Befana tashqi ko'rinishidan bizning ertaklarimizda uchraydigan yalmog'iz kampir obrazidek tasvirlansa-da, uning ijtimoiy va madaniy vazifasi yalmog'izdan tubdan farq qiladi. Befana obrazi orqali italyan xalqi tashqi ko'rinish ichki dunyoning aksi emasligini boshqalarga ham ko'rsatib berishga intilishadi. Yalmog'iz va Befana obrazlari ikki madaniyat o'rtasidagi izomorfik xususiyatlarning yaqqol namunasi bo'ladi. *Malocchio* esa qahramonlar yengib o'tishi kerak bo'lgan ko'rinmas, ammo qudratli yovuzlik timsoli bo'lib, asar tugunini shakllantiruvchi lisoniy va madaniy element hisoblanadi. O'zbek ertaklarida esa mifologik obrazlar islomiy va qadimiy turkiy (shamanizm, animizm) e'tiqodlar majmuasidan iboratdir. *Dev, pari, sehrli gilam* va *yalmog'iz kampir* kabi leksik birliklar matnda nafaqat ishtirokchi, balki madaniy mazmun beruvchi vazifasini o'taydi. Masalan, *yalmog'iz kampir* obrazi italyanlarning *Befanasiga* funksional jihatdan o'xshab ketsa-da, uning tabiati ancha murakkab: u ba'zida qahramonga yo'l ko'rsatuvchi, aksariyat hollarda esa halokatga yetaklovchi timsoldir. *Dev* esa qadimiy e'tiqodlardagi yovuz ruhlardan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek ertaklarida azaliy jismoniy kuch va johillik ramzi sifatida qatnashadi. Ertaklarning kompozitsion qurilishida makon va zamon koordinatalari ham o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, ular muayyan xalqning geografik muhiti va mifologik tafakkurini aks ettiradi. O'zbek xalq ertaklarida uzoqlik, masofa

va qiyinchilik darajasi ko‘pincha an‘naviy o‘lchov birliklari yoki sonlar orqali ifodalanadi. Masalan, “*Etti iqlim o‘tib...*”, “*Bir chaqirim yo‘l yurib...*” yoki “*Ot qadamidek yer*” kabi birikmalar o‘zbek xalqining ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarzi elementlarini o‘zida jamlagan. Italyan xalq ertaklarida esa makon asosan dengiz, tog‘, minoralar va qadimiy qirolliklar bilan cheklanadi. Masalan, Italo Kalvino to‘plamlarida uzoqlik ko‘pincha vaqt o‘lchovi yoki charchoq darajasi bilan beriladi: “*Caminò tant’anni da consumare sette paia di scarpe de ferro...*” (Yetti juft temir poyabzal yeyilguncha shuncha yillar yo‘l yurdi). Bu yerda temir poyabzal (scarpe di ferro) italyan ertak morfologiyasida uzoq va mashaqqatli safarning lingvomadaniy ramzi hisoblanadi va o‘zbek ertaklaridagi “tosh tayoq, temir kovush” konsepti bilan to‘liq izomorfik (o‘xshash) xususiyat namoyon etadi. Biroq, ularning lisoniy ifodalanishi har bir xalqning o‘z turmush tarzidan kelib chiqqan.

Yana bir qiziqarli tahlil gastronomik leksika (taomnomalar)da aks etgan bo‘lib, ertak qahramonining ijtimoiy holatini ochib beruvchi yorqin lisoniy vosita sifatida qabul qilishimiz mumkin. Maqolamizning oldingi qismida keltirilgan *focaccia* yoki *maccheroni* kabi taomlar italyan jamiyatining quyi qatlami va kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lsa, shohona ziyofatlarda mutlaqo boshqa madaniy birliklar keltiriladi. Jambattista Bazile ijodida oliy tabaqa vakillarining taomlari ta’rifida “*pasticcio di piccioni*” (kabutar go’shtli pirog) kabi aristokratik realizatsiyalar uchraydi. O‘zbek ertaklarida esa ijtimoiy farqlanish oziq-ovqat orqali yanada yaqqolroq chiziladi. Kambag‘al qahramonlar (masalan, cho‘pon yigitcha) ko‘pincha “*bir burda quruq non*” yoki “*arpa non*”, “*qotirma*” bilan qanoatlanadi: *Chol o‘tin terib sotib, tirikchilik qilar ekan. Har kuni o‘tinga ketayotganida kampir unga qotirma qilib berar ekan* (Chol bilan dev). Ushbu parchadagi “*qotirma*” so‘zi orqali chol va kampirning ijtimoiy holati, iqtisodiy imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Qotirma non deb odatda sutsiz, qaymoqsiz, qattiq qilib tayyorlangan nonga nisbatan aytiladi. Uni tayyorlash uchun faqatgina suv va undan foydalanish yetarli bo‘lganligi uchun kambag‘allar taomi sifatida qaralgan.

Shohlar va boylarning dasturxoni esa “*palovxonto‘ra*”, “*shirguruch*”, “*bo‘g‘irsoq*” va “*mayiz-turshak*” kabi leksik birliklar orqali tasvirlanadi. Bu kabi

lingvomadaniy birliklar tarjimasida shunchaki yegulik nomini berish yetarli emas, balki ularning ortida yashiringan ijtimoiy yuklama va xalqning o'tmishdagi iqtisodiy hayoti manzarasini ham ko'rsatish imkoni tug'iladi.

Madaniy yuklamali so'zlarni boshqa tilga o'girishda tarjimon matnni o'quvchiga emas, balki o'quvchini matn madaniyatiga yaqinlashtiruvchi asosiy vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv zamonaviy tarjimashunoslikda "foreignization" strategiyasi sifatida talqin etilib, "*asliyatdagi madaniyatining o'ziga xosligini saqlab qolishning eng samarali yo'li hisoblanadi*" (Venuti, 2017, p. 20). Zero, "*madaniy kodni ikkinchi tilning lisoniy qoliplariga uning milliy jozibasini yo'qotmagan holda joylashtirish nafaqat lisoniy, balki puxta o'ylangan yo'ldir*" (Zabalbeascoa, Voellmer, 2014, 95).

XULOSA

Italyan va o'zbek xalq ertaklaridagi madaniy yuklamali leksikani qiyosiy-lingvistik va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish natijasida har ikki xalqning og'zaki ijodi o'ziga xos boy lisoniy manzaraga ega, degan asosli xulosaga kelish mumkin. Moddiy madaniyat elementlari (taom va liboslar), ijtimoiy-maishiy makon hamda diniy-mifologik obrazlar asar syujetida shunchaki ishtirok etib qolmasdan, milliy o'ziga xoslikni ta'minlovchi asosiy kod vazifasini bajaradi. Aynan ushbu madaniy kodlarning tillararo xilma-xilligi ertaklarni tarjima qilishda amaliy muammolarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, italyan tilidagi *Befana*, *Malocchio*, *fonteva* o'zbek tilidagi *tandir*, *pari*, *dev* kabi tushunchalarni boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri leksik jihatdan o'girish asar ruhiyatining sayozlashishiga va ta'sirchanlikning kamayishiga olib keladi. Shu sababli, madaniy so'zlarni tarjima qilishda quyidagi strategiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

- Asarda uchragan madaniy so'zni mazmunan saqlab qolish uchun muqobilsiz so'zlarni transliteratsiya usulida o'girib, matn ostida izoh berish (kitobxonni o'zga madaniyat bilan tanishtirish uchun eng samarali usul-Befana, Carnevale, Pasqua).
- Ikki madaniyat uchun ham tushunarli bo'lishi mumkin bo'lgan birikmalarni (uchar gilam-tappeto volante; acqua santa-muqaddas suv) so'zma-so'z o'girish.

-Faqatgina o'quvchiga notanish bo'lgan leksik birliklar tarjimasida asar ruhiyatiga va mazmunigasalbiy ta'sir yetkazmagan holda milliy ekvivalentlardan me'yorida foydalanish:

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir madaniyatga xos bo'lgan, boshqa madaniyatlarda lisoniy muqobili yo'q birliklarni o'girish va izohlash tarjimonlikda doimo murakkabliklarni keltirib chiqargan. Agar italyan tilidagi *Befana* so'zi o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri "*yalmog'iz kampir*" deb tarjima qilinsa, uning diniy e'tiqod va bayram bilan bog'liq ijobiy va milliy xususiyatlari butunlay yo'qoladi. Xuddi shunday, o'zbek tilidagi *dev* so'zini italyan tilidagi *orco* yoki *mostro* (maxluq) so'zlari bilan almashtirish qadimiy Sharq mifologiyasiga xos jozibadorlik va ta'sirchanlikni kamaytiradi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, madaniy yuklamali so'zlarni o'girishda tarjimondan yuqori kompetentlik talab qilinadi, u matnni o'quvchiga emas, balki o'quvchini matnmadaniyatiga yaqinlashtiruvchi asosiy vositachidir. Asliyatdagi milliy til birliklarini mazmunan saqlab qolish va o'quvchiga tushunarli bo'lishi o'rtasidagi oltin oraliqni topishmadaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Italyan va o'zbek xalq ertaklaridagi madaniy birliklar shunchaki lisoniy unsurlar emas, balki har bir millatning asriy tajribasi va qadriyatlarini tashuvchi jonli xotira hisoblanadi. Ularni tarjima jarayonida aslicha saqlab qolish nafaqat badiiy matnning milliy ruhini boyitadi, balki turli madaniyat vakillari o'rtasida chinakam lisoniy va ma'naviy muloqot ko'prigini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basile G. Lo cunto de li cunti, overo lo trattenemiento de peccerille. – Napoli: Salvatore Carmignano, 1634.
2. Befana // Treccani. Italyan ensiklopediyasi. – Rim: Italiya Ensiklopediya Instituti. – URL: <https://www.treccani.it/enciclopedia/befana>
3. Calvino I. Fiabe italiane. – Torino: Giulio Einaudi Editore, 1956.
4. Caniato M. Cultural Words and Translation Strategies. – Milano: Academic Press, 2024.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

6. Qutbiddinova N.R. Realiza tushunchasi va uning tilshunoslikda o'rganilishi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – Vol. 3. – № 3. – B. 771–777.
7. Rahmatova Z. Ertaklarda lingvomadaniy birliklar va muqobilsiz leksika tahlili. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2024.
8. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2017.
9. Vlahov S., Florin S. Neperevodimoye v perevode. Realii. – Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya, 1980.
10. Zabalbeascoa J., Voellmer E. Cultural Literacy in Translation. – London: Routledge, 2014.

REFERENCES

1. Basile, G. (1634). The Tale of Tales, or Entertainment for Little Ones. Naples: Salvatore Carmignano.
2. Befana // Treccani. Italian Encyclopedia. – Rome: Institute of the Italian Encyclopedia. – URL: <https://www.treccani.it/enciclopedia/befana>
3. Calvino, I. (1956). Italian Folktales. Turin: Giulio Einaudi Editore.
4. Caniato, M. (2024). Cultural Words and Translation Strategies. Milan: Academic Press.
5. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.
6. Qutbiddinova, N. R. (2023). The Concept of Realia and Its Study in Linguistics. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 3(3), 771–777.
7. Rahmatova, Z. (2024). Analysis of Linguocultural Units and Non-Equivalent Lexis in Fairy Tales. Tashkent: University Press.
8. Venuti, L. (2017). The Translator's Invisibility: A History of Translation (3rd ed.). London & New York: Routledge.
9. Vlahov, S., & Florin, S. (1980). Untranslatable Elements in Translation: Realia. Moscow: Mezhdunarodnye Otnosheniya.
10. Zabalbeascoa, J., & Voellmer, E. (2014). Cultural Literacy in Translation. London: Routledge.